BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINING MUAMMO VA YECHIMLARI

Abduholiqova Ra’no Mahmudjon qizi
Namangan Davlat Pedagogika Insituti
Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim)
1-kurs magistaturanti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23554707

Annotatsiya Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida joriy etilayotgan yangi avlod darsliklari va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati shu bilan birga mana shu darsliklar tufayli yuzaga kelayotgan ayrim muammolar tahlil qilinadi. Shu bilan birga darsliklarning murakkabligi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga to‘liq mos kelmasligi o‘qituvchilarning yangi darsliklar bilan ishlash ko‘nikma va malakalarining kamligi,nazariyani amaliyot bilan uzviy bog‘lay olmaslik kabi muammolar va ularning yechimlari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, darslik, yangi avlod, boshlang‘ich, o‘quvchi, resurs,topshiriq, muammo, yechim, matn, mustaqil, tizim, dars.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarga zamonaviy ta’lim berish,ularda kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qila olish va o‘z fikrini isbot va va dalillar orqali asoslash kabi bir qator ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.2022-yil 11-maydagi PF-134-son Prezident farmoni bilan 2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur tasdiqlangani ham so‘zimizning yaqqol dalilidir.
Unga ko‘ra;

- Zamonaviy darsliklarni amaliyotga joriy etish;
- Milliy o‘quv dasturini to‘liq joriy qilish;
- Yangi avlod darsliklari uchun electron resurslar va multimedia mahsulotlarini yaratish kabi vazifalar belgilang

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yangi darsliklarning ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor berib “Ta’lim sifatini oshirish, bolalarni o‘qishga qiziqtirishning muhim omili, birinchi navbatda, yaxshi darslik’’,degan fikrni bildirgan edilar.

Yangi avlod darsliklari; muammo va yechimlari.

Yangi avlod darsliklarini amaliyotga tadbiq etish o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

***Birinchi muammo** - darsliklardagi topshiriqlarning murakkabligidir. Ayrim topshiriqlar o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga va tayyorgarlik darajasiga nisbatan murakkabroq. Ayniqsa bu muammo boshlang‘ich sinf darsliklarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki barcha o‘quvchilarning bilim darajasi hali boshlang‘ich bo‘lganligi va qabul qilish darajasi turli xil bo‘lganligi sababli barchasi teng o‘zlashtira olmaydi. Shuning uchun topshiriqlarni differensiallashtirish kerak.

Differensiallashtirish - o‘quvchilarning bilim darajasi,qobiliyati, qiziqishi va ehtiyojlari turlicha ekanini hisobga olib, ularga mos topshiriq va yondashuv berish degani.

Masalan, bir sinfda 3-xil topshiriq berish mumkin:

*1-daraja: matndan javobni toppish

* 2-daraja: matnni tahlil qilib, xulosa chiqarish;

* 3-daraja: matn asosida mustaqil ijodiy fikr bildirish.

Amerikalik pedagog olim C.A.Tomlinson ta’limda o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishi va individual o‘rganish xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ta’lim jarayoni turli ehtiyojlarga ega o‘quvchilarning rivojlanishiga imkon beradigan tarzda tashkil etilishi lozim.

***Ikkinchi muammo** - o‘qituvchilarning yangi darsliklar bilan to‘la ishlay olmasligi.Yangi darsliklar bilan ishlashda o‘qituvchilardan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va o‘quvchilarni mustaqil kreativ fikrlashga undovchi usullardan foydalanishi talab etiladi.Buning uchun esa hamma pedagoglarda ham malakalar yetarli emas. Chunki pedagoglar yillar davomida an’anaviy dars o‘tish tizimiga bog‘lanib qolishgan. Shu sababli ham pedagoglarning metodik tayyorgarligini muntazam oshirib borishi zarur.Bu muammoni bartaraf etish uchun esa yangi darsliklardan foydalanish metodikasiga bag‘ishlangan amaliy seminarlar, metodik qo‘llanmalar va treninglarni ko‘paytirish maqsadga muvofiq.

Muammoni yana bir samarali yechimi - maktablarda o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashish tizimini kuchaytirishdir. Bunda bir o‘qituvchi yangi darslik asosida tashkil qilgan samarali darsini boshqa pedagoglarga namoyish etishi, topshiriqlarni bajarishda yuzaga kelgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullarini muhokama qilishi mumkin.Shuningdek, metodik birlashmalar doirasida yangi darsliklardagi murakkab mavzular va topshiriqlarni birgalikda tahlil qilish ham samarali natija beradi.

Yangi avlod darsliklariga moslashish faqat darslikni almashtirish bilan yakunlanadigan jarayon emas. Shuning uchun yangi avlod darsliklarini samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarni amaliy-metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, darslik topshiriqlarini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, differensial yondashuvni qo‘llash, tajriba almashish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Natijada, darslik bilan o‘qituvchi faoliyati uyg‘unlashib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, amaliy ko‘nikmalari va ta’lim jarayonidagi faolligi rivojlanishiga xizmat qiladi.

***Uchinchi muammo** - nazariyani amaliyot bilan uzviy bog‘lay olmaslikdir.
Zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda olgan bilimlarini real hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini ham shakllantirishdir. Shu sababli yangi darsliklarda nazariy ma’lumotlardan keyin uni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olish, muammoni hal qilish, xulosa chiqarish va real hayotga tadbiq etuvchi topshiriqlar bo‘lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, matinni o‘qish tahlil qilish yoki matematik bilimlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liq topshiriqlar yetarli bo‘lmasa, o‘quvchilarda amaliy kompetensiyalar yaxshi rivojlanmaydi. Bu muammoni oldini olish uchun loyiha va amaliy ishlarni tashkil etish, muammoli ta’lim metodlaridan foydalanish, hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni ko‘paytirish va o‘quvchilarning kundalik tajribasiga tayanish kerak.

Bu borada mashxur rus pedagogi K.D.Usheniskiy o‘zining “Inson-tabiat predmeti sifatida” asarida pedagogika nazariyasini egallashning o‘zi yetarli emasligini, nazariy bilim pedagogik faoliyatda amaliy qo‘llanishi lozimligini ta’kidlaydi. Usheniskiy fikricha, pedagog

pedagogika nazariyasini qanchalik yaxshi bilmasin, uni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtira olmasa, samarali amaliyotchi bo‘la olmaydi.

Demak, zamonaviy darsliklar o‘quvchiga faqat bilim beruvchi manba emas, balki ushbu bilimni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltiruvchi vosita bo‘lishi kerak.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, yangi avlod darsligining asosiy maqsadi shunchaki yangi bilim berish emas, balki o‘quvchini o‘sha bilimdan foydalanisha o‘rgatishdir. Yangi avlod darsliklaridan foydalanishda yuzga keladigan muammolar va ularning yechimlarini toppish har doim dolzarb masala bo‘lib qoladi. Zero, mukammal darslik-faqat bilim beradigan emas, balki o‘quvchiga bilimini hayotda qo‘llashga o‘rgatadigan darslikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6106-son Farmoni. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim- tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni. “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi.Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun yangi avlod darsliklari va o‘quv-metodik majmualariga oid materiallar.
4. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi-LexUZ.

Акбаралиевна М.Д. Роль чтения в личностном развитии // Европейский журнал инноваций в неформальном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 138-141.

5. Акбаралиевна М.Д. Роль чтения в личностном развитии // Европейский журнал инноваций в неформальном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 138-141.
6. Akbaralievna M. D. A library culture in the world //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 6. – С. 1351-1354.
7. Акбаралиевна, Муминова Дилафро'з. «Библиотека — это высокая добродетель». Европейский журнал инноваций в неформальном образовании 2.5 (2022): 42-45.
8. Акбаралиевна, Муминова Дилафро'з. Книги и библиотека являются зеркалом человеческой духовности //ResearchJet Журнал анализа и изобретений. – 2021. – &. – 2021. – Т. 2. – С. 135-140.
9. Tomlinson,C.A. The differentiated classroom:Responding to the Needs of All Learnes.2014.
10. K.D.Usheniskiy “Chelovek kak predmet vospitaniya” (Inson-tarbiya predmeti sifatida) opyt pedagogicheskoy antropologii.
11. K.D.Usheniskiy Podnoe slova (ona tili) Sankt-Peturburg,1864.
12. https://ZiyoNET.uz.

.